

Termiz shahar hokimligi | Har tongni madhiyamiz sadolari bilan qarshi olamiz!



Yurtimiz mustaqillikka erishgach, xalqimizning azaliy orzu-istaklari, ezgu intilishlari O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlarida o'zining yorqin ifodasini topdi. Chunonchi, Vatanimiz madhiyasi ham uning o'zi kabi aziz va muqaddasdir.

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon.
Yashnagay toabad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin, toki bor jahon...

Ana shunday satrlar bilan boshlanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangrab, bayrog'imiz boshimiz uzra hilpiraganda, ozod Vatanimizga nisbatan qalbimizning tub-tubida g'urur paydo bo'ladi, hurmat-e'tibor kuchayadi, faxr-iftixor hissi jo'sh uradi. Bu muazzam sado azmu shijoatli xalqimizning ruhiga ruh, kuchiga

kuch bag'ishlab, yangidan-yangi bunyodkorlik ishlariga da'vat etadi.

Buyuk va muqaddas Vatanimiz madhiyasi